

## “Maxsus toifadagi raqamni tanlash va taqdim etish” xizmatlari chegirma aksiyasi qoidalari.

“Maxsus toifadagi raqamni tanlash va taqdim etish” xizmati uchun chegirmalar Aksiyasining mazkur Tavsifi (keyingi o‘rinlarda – Aksiya deb yuritiladi) “Humans” MChJning (100047, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Magtimguli ko‘chasi, 2 B uy, STIR 306624856) (keyingi o‘rinlarda – Provayder) yangi mijozlarni jalb qilish, Provayder xizmatlariga nisbatan e‘tiborni oshirish maqsadida nomuayyan shaxslar doirasiga taklifi.

### 1. AKSIYA HAQIDA MA'LUMOT

1.1. Mazkur Qoidalar matnida katta harflar bilan yoziladigan so'zlar atamalardir. Atamalarning ta'rifi agar bu qoidalarda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, provayder tomonidan tasdiqlangan HUMANS aloqa xizmatlarini taqdim etish shartlarida va <https://humans.uz/uz/> saytida berilgan, shuningdek, tariflarning tavsiflarida ham keltirilgan.

1.2. Aksiya ishtirokchilari – “Humans” aloqa xizmatlarini taqdim etish shartlarini qabul qilish orqali operator bilan aloqa xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma tuzgan va aksiyani o‘tkazish davrida “Maxsus toifadagi raqamni taqdim etish” xizmatiga buyurtma bergan jismoniy shaxslar - mijozlar.

1.3. Aksiya o‘tkaziladigan hudud: O‘zbekiston Respublikasi.

1.4. Aksiya muddati: 09.04.2024-y.dan muddatsiz to bekor qilingunicha.

### 2. AKSIYA TAVSIFI

2.1. Aksiya davomida Mijoz 1 va 2-toifali raqamlar uchun mos ravishda 20 000 va 30 000 so'mlik "Maxsus toifa raqamini tanlash" yoki "Maxsus toifa raqamini taqdim etish" xizmatiga buyurtma berishi mumkin. "Maxsus toifadagi raqamni taqdim etish" xizmati doirasida to'lovni amalga oshirishda 30 kunlik xizmat narxi quyidagicha:

Davrlar soni (1 davr 30 kunga teng)	1 davr narxi	
	1-toifali raqam	2-toifali raqam
6	3 667 UZS	5 500 UZS
12	1 917 UZS	2 875 UZS
24	1 000 UZS	1 500 UZS

### 3. YAKUNIY QOIDALAR

3.1. Ushbu Qoidalar Proвайder saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Proвайder ushbu qoidalarni bir tomonlama o'zgartirish yoki aksiyani bekor qilish huquqiga ega, bu haqda saytda tegishli xabarni joylashtirish orqali xabardor qiladi. Xabarnoma sanasi - saytdagi tegishli ma'lumotlarning e'lon qilingan sana. Saytda tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan paytdan boshlab qoidalar o'zgartirilgan va aksiya bekor qilingan, deb hisoblanadi.

3.2. Aksiya davrida Mijoz tomonidan "Maxsus toifadagi raqamini tanlash" yoki "Maxsus toifadagi raqamini taqdim etish" xizmatiga buyurtma berish jismoniy shaxslarga qaratilgan oferta hisoblangan Qoidalarga to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.

3.3. "Alohida toifadagi raqamni tanlash va taqdim etish" xizmatlariga chegirma" aksiyasining qoidalari number-discount-uz.pdf (humans.uz) 1 va 2 Toifadagi raqamlarga 09.04.2024dan amal qilmaydi. 1 va 2 Toifadagi raqamlarga 09.04.2024dan faqatgina ushbu Aksiya qoidalari amal qiladi.